

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI DARSGA JALB ETISH VA MAVZUNI OSONLIK BILAN O‘RGATISH

Ahmedova Sh.Z

Qashqadaryo viloyati XIU universiteti

Pedagogika va iqtisodiyot fakulteti

B.T 3-kurs 23-03 guruh

talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb bo‘lgan o‘quvchilarning darsga qiziqishi masalalarini tushunish uchun o‘qituvchining psixologik va ilmiy mahorati haqida so‘z boradi. Ushbu jarayonda o‘qituvchi qo‘llashi kerak bo‘lgan usullar va bir qancha metodlar misol keltirilgan. Bolalarni darsga qiziqtirish usullari tavsiflar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *didaktika; tarbiyachi; uslub; metodika; interfaol o‘qitish; kreativlik; psixopedagogika.*

Kirish

Biz bilamizki, har bir davrda va barcha mamlakatlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari Poydevor hisoblanadi. Poydevori sifatli va mustahkam bo‘lishi nafaqat ota-ona, balki o‘qituvchiga ham ko‘proq bog‘liqdir.

Yurtimizda ilk maktab davrlarida asosan o‘g‘il va qiz bolalar alohida-alohida o‘qitilgan. O‘g‘il bolalarga domla, ustozlar, qizlarga esa otin oyilar dars berishgan.

O‘sha davrlarda ham ilmi kishilar yetishgan. Bugungi kunda ta‘lim sohasida juda ko‘p imkoniyatlar va innovatsion texnologiyalar yaratib berilmoqda.

Yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, ularga ilm berish va kasb tanlashda ko‘mak berish bugungi kun talabidir.

Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy maqsadi ham — yosh avlodni rivojlanishi, intellektual, jismoniy va ma‘naviy salohiyatini amalga oshirib, davlat va jamiyat hayotiga faol ishtirok etishini ta‘minlash, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash eng oliy maqsaddir.

Asosiy qism

Pedagog tarbiyachining asosiy vazifasi o‘z mahorati, zukkoligi va farosati bilan o‘zining shaxsiga bo‘lgan qiziqishi bolalarni kuchli, umumiy tushunchaga ega bo‘lishi va asosan psixolog bo‘lishi lozim.

O‘qituvchi tahlil etishni, qiyinchiliklarni yengib o‘tishni, kerak bo‘lganda qat‘iy bo‘la olishni va hazil-mutoyibani bilishi kerak.

Pedagog o‘zini tutishni qayerda, qanday gapirishni bilmog‘i lozim, chunki uning har bir harakati boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

Shuning uchun pedagog avvalo o‘ziga talabchan bo‘lmog‘i lozimdir. Endigina maktab ostonasiga qadam qo‘ygan jajji yurakchalar bilan chiroyli va samimiy ish olib borishi zarur.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilim saviyasi oliy darajada bo‘lishi kerak va bu o‘quvchilar yutuqlariga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda zamonaviy dars tizimi jadal rivojlanib borib, bunda o‘qituvchi kreativlik qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Har bir dars oldidan chuqur izlanish bilan bir qatorda turli xil metodlardan, ta’limiy o‘yinlardan foydalanishi mumkin. Bunga misol: zanjir, baliq skeleti, charxpalak, 5 ta 6, skanerlar tuzish usullari turlari ko‘p bo‘lib, o‘qituvchi o‘z qobiliyatidan kelib chiqib mavzuga oid ko‘rgazmalar, turli xil o‘yinlar va taqdimot usullaridan foydalanishi mumkin. Bunda o‘quvchi va o‘qituvchi faol qatnashadi. Bundan tashqari dars mashg‘ulotlari qiziqarli va mazmunli kechadi. O‘quvchilarning yoshiga moslab taqdimot berish esa ularda motivatsiya beradi. O‘quvchilar bilimini oshiradi va o‘z-o‘zidan dars va mavzularga qiziqish ortadi. Darslar qiziqarli, sifatli bo‘lib o‘tadi.

Pedagogik kompetensiya - bu o‘rganilgan ma’lumot va bilimlarni eslab qolishi o‘rgangan bilimlarini tushuntirib berishi tanish vaziyatlarda qo‘llay olishi hisoblanib bu nafqat pedagogda balki o‘quvchida ham shakllanmog‘i lozim.

O‘quvchining asosiy vazifasi - o‘qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushunib olishdir.

Guruhlab o‘tishning yo‘llari: mashqlar, mustaqil ishlar, laboratoriya, amaliy va nazariy ishlar kiradi.

O‘quvchi faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi.

Bunda o‘qituvchining roli o‘quvchilarning o‘qishiga mohirona rahbarlik qilishga bog‘liqdir.

Darsga qo‘yilgan psixologik talablar.

Zamonaviy darslarga qo‘yiladigan didaktik talablar

- Ta’lim topshiriqlarini va elementlarini hisobga olgan holda aniq qo‘yish
- O‘quv rejasini va darsning maqsadini va o‘quvchilarning tayyorgarligink hisobga olish, optimalligini belgilash
- dars mobaynida o‘quvchilarning bilimlarini o‘zlashtirishlarini hisobga olish.
- Darsda jamoa bo‘lib ishlash, individual ishlash yo‘llarini va samarali metod, usullarni shakllantirish.
- Dars mobaynida barcha didaktik prinsiplarni qo‘llay olish.
- O‘quvchilarning muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratish.

Darsning psixologik talablari:

Aniqlab olingan o‘quv fani aniq darsni o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning rivojlanishini loyihalash;

— O‘tilgan mavzularni qay darajada o‘zlashtirganliklarini darajalash va darsdagi psixologik topshiriqlarni hisobga olmoq lozim.

Shunda o‘quvchilarning rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan psixologik va pedagogik ta’sir o‘tkazish usul va vositalarini o‘zida mujassam etib, o‘quvchilarning fikrlash va esda saqlashini mustahkamlaydi.

O‘quvchilarni darsga jalb qilish usullari

Avvalo o‘quvchilarni diqqatini jamlash lozim. Biz bilamizki 7-10 yoshgacha bo‘lgan bolalarning diqqatini 8 minut jalb qilamiz xolos bu vaqtdan keyin bolaning diqqatini o‘z o‘zidan tarqatdi. Garchi o‘quvchi sizga qarab turgan va tinglayotgandek ko‘rinsada diqqati bo‘lingan bo‘ladi va mavzuni qabul qilishi qiyinlashadi.



Buning uchun o‘qituvchi manashu 8-minut ichida turli usullar metodlar chiroyli kartinalar bundan tashqari o‘zidagi so‘z boyligi va iqtidori bilan mavzuga olib borishi va tushuntirishi lozim.


Aynan shu lahzalarda o‘quvchilarning diqqatini tortuvchi chiroyli ko‘rgazmalar yani illyustratsiya va demonstratsiya qo‘l keladi. Asosan kichik yoshdagi bolalar va o‘quvchilar ko‘rgazmali qurollarga qiziqishadi. Darsning ma’lumotlarini ifodali yozishi talab qilinadi. Har bir dars mustaqil g‘oyaviy jihatdan tarbiyaviy yo‘nalishga ega bo‘lmog‘i lozimdir. Darsning mazmuni o‘tilayotgan mavzuga, mohiyatiga bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarga g‘oyaviy va tarbiyaviy jihatdan ta’sir ko‘rsata oladigan materiallar bilan boyitilishi lozim. Ushbu materiallar asosida o‘tilgan dars o‘quvchilarning ilmiy nazariyasi va dunyoqarashini shakllantirib, ularni barkamol shaxs sifatida, ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ta’lim-tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, bunda o‘qituvchidan ko‘proq mehnat va sabr talab etadi. Pedagogik shaxsni jamiyatga shakllantirib berish asosida ulkan hissa qo‘shadi.

Darsga jalb qilish uchun metod va ko‘rgazmalar tayyorlash alohida tariqasidir: O‘qish yoki alifbo darsligiga jalb qilish uchun maxsus har xil rasmi qurollar yasash jonsiz predmetlar asosida tashkil etishi. Bu o‘quvchilarni yangi mavzuga qiziqishiga uning qanday yakun topishini bilishga hohishi ortadi. Ertak va hikoya qahramonlarini obrazga kirgan holda, o‘qish yoki aytib berish Bu ham o‘quvchida yangi mavzuga qiziqish uyg‘otadi. Lekin ushbu usullar o‘qituvchidan aktyorlik mahoratini talab etadi. Ulate matohlar va ona tilo darsliklarida esa turli testlar, krossvordlar ta’limiy o‘yinlar bundan tashqari rag‘batlantirish va mukofotlash metodlarini tayyorlab yangi mavzuni o‘tish ancha samarali kechadi. Hozirgi kunda Fransiya ta’lim tizimidan olingan va dastlab qo‘llanilb kelayotgan usul yani guruhlash usullari

Guruhlashda sinf o‘quvchilarini kichik guruhlariga taqsimlab guruh-guruhlariga bo‘lib dars o‘tish bu usul juda yaxshi samara beradi. O‘qituvchi qanchalik kreativ bo‘lsa ushbu usullarni kengaytirmog‘i boyitmog‘i mumkin.

Dars mobaynida bunday usullardan foydalanish o‘quvchi va o‘qituvchiga bir qancha qulayliklar tug‘diradi. Xususan 40-45 minut ichida dars o‘tish bilan bir qatorda bolalar baholanib borishadi.



Bular og'zaki bayon qilish metodining turlari bo'lib, boshlang'ich sinfda juda ko'p qo'llaniladi, ya'ni har bir bolaga mavzularni nafaqat yozma, balki og'zaki bayon qilish orqali mavzuga olib kiriladi.

Xulosa

Biz bilamizki, ko‘p pedagoglar o‘quvchilarga an‘anaviy dars tizimida bo‘lib, esa bunda faqat doska bilan ishlash orqali kifoyalanishadi. Asosan, ushbu dars o‘tish usul va metodlardan foydalanishdan asosiy maqsad jamoaviy bo‘lib ishlash va o‘quvchilarni turli noan‘anaviy dars ishlanmalariga o‘rgatish, mustaqil faoliyatga jalb etishdir. Bunda tortinchoq hamda o‘zlashtirishga qiynalgan o‘quvchilarni ham darsga jalb qilish osonlashadi. Kichik guruhlariga bo‘lingan holda metodlar, ta‘limiy o‘yinlar orqali o‘quvchilarni darsga qiziqtirish va jalb etish oson kechadi va mazmunli o‘tadi. Bunday dars o‘tish usuli bolalarni bir-birlari bilan muloqotga kirishishlari, o‘zaro hurmat, mehr va umuminsoniy tuyg‘ular uyg‘otadi.

O‘quvchilarni har qanday fanga qiziqtirishda olib kirishdan avval uning diqqatini jamlashimiz lozim.

Diqqatni jamlash pedagogik mahoratga bog‘liqdir. Ushbu diqqatni jamlash bolani beistiyoq ruhini tortuvchi, qiziqtiruvchi ko‘rgazma va innovatsion texnologiyalar orasida tayyorlangan vositalar orqali hozirgi kunda o‘z samarasini beradi.

Biz bilamizki, o‘quvchilar maktabga qadam qo‘yganlarida: ularning ongida boshlang‘ich sinf ustodi ideal sifatida yuzlanadi.

O‘quvchi o‘z-o‘zidan yangi ta‘limni talab qilishi lozim. Shunday ekan, kelajak poydevori bo‘lgan yoshlarni go‘zal hulqli, chuqur bilimli, milliy ruhda va vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashimiz kerak.

Adabiyotlar:

1. Hoshimov K., Ochilov S. O‘zbek pedagogikasining antologiyasi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2010.
2. Umumiy pedagogika. Toshkent, 2016. Shodmonov.
1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - T.: 2003. - 174 b.
"Science and Education" Scientific Journal / www.openscience.uz February 2025 / Volume 6 Issue 2
ISSN 2181-0842 / Impact Factor 4.526 337
2. Azizxo‘jayeva N.N. Tarbiyachi mutaxassislarini tayyorlash texnologiyasi. - T.: «Nizomiy TGPU». 2000. - 52 b.
3. Haydarova O.Q. Bo‘lajak tarbiyachilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. Qarshi, Nasaf, 2008. 114 bet.
4. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. - T.: O‘z MU. 2003. - 66 b.
5. Saidahmedov N.S., Ochilov A. Yangi pedagogik texnologiya mohiyati va zamonaviy loyihasi. - T.: XTV RTM, 1999. - 55 b.